

2022-YIL YAKUNI BO'YICHA MAHALLIYLASHTIRISH DASTURI IJROSI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-yanvardagi "Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-99-sonli qaroriga muvofiq, shuningdek 2022-yilda import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida kombinat tomonidan jami **167** ta loyiha bo'yicha **537,6** mldr. so'mlik, shu jumladan **114** ta yangi va kengaytirilgan loyihalar bo'yicha **366,9** mldr. so'mlik mahalliylashtiriladigan mahsulot ishlab chiqarish ko'zda tutilgan.

2022-yilgi mahalliylashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha tasdiqlangan jadvalga muvofiq, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida **167** ta (jadval bo'yicha 167 ta) loyiha bo'yicha **554,6** mldr. so'mlik yoki davr prognoziga nisbatan **103,2%**ga mahsulotlar ishlab chiqarildi, 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **128,8%**ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 oyda **114** ta yangi va kengaytirilgan loyihalar bo'yicha EKG ekskavatorlari uchun ehtiyyot qismlar, markazdan qochma yanchish mashinasi korpusi, gidravlik ekskavatorlari uchun ehtiyyot qismlar, yuklash va etkazib berish mashinasi uchun ehtiyyot qismlar va metallga ishlov beruvchi dastgohlar kabi umumiyligi **378,0** mldr. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.